



INNOVATIVE WORLD
Ilmiy tadqiqotlar markazi

ZAMONAVIY ILM-FAN VA TA'LIM: MUAMMO VA YECHIMLAR ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA



Google Scholar  zenodo  OpenAIRE



+998335668868

<https://innoworld.net>

2026



«INNOVATIVE WORLD» ILMIY TADQIQOTLARNI QO'LLAB-
QUVVATLASH MARKAZI

«ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOTLAR: MUAMMO VA
YECHIMLAR» NOMLI 2026-YIL № 5-SONLI ILMIY,
MASOFAVIY, ONLAYN KONFERENSIYASI

ILMIY-ONLAYN KONFERENSIYA TO'PLAMI
СБОРНИК НАУЧНЫХ-ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЙ
SCIENTIFIC-ONLINE CONFERENCE COLLECTION

Google Scholar



ResearchGate

zenodo



ADVANCED SCIENCE INDEX



Directory of Research Journals Indexing

www.innoworld.net
O'ZBEKISTON-2026



Raqamli transport koridorlari va "Yashil yo'lak" tizimini takomillashtirish.**Mamadaliyev Nodirbek Obidjon o'g'li** – talaba

Andijon Davlat Texnika Instituti

Avtomobilsozlik va Transport fakulteti

"Transport logistikasi" yo'nalishi 4 -kurs talabasi

Telefon: +998940012041

E-mail: h60558938@gmail.com

Bugungi kunda xalqaro savdo hajmining ortishi tufayli transport va logistika tizimida raqamli texnologiyalarning o'rni tobora ortib bormoqda. Xalqaro yuk tashish jarayonlarini tezlashtirish va samaradorligini oshirish maqsadida raqamli transport koridorlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, O'zbekiston orqaliy o'tuvchi tranzit yo'nalishlarda "Yashil yo'lak" tizimini takomillashtirish va E-TIR kabi zamonaviy texnologiyalarni joriy etish muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Xalqaro transport koridorlari transport xarajatlarini optimallashtirish, yetkazib berish va nazorat o'tkazish nuqtalaridan o'tish vaqtlarini qisqartirish kabi asosiy muammolarni hal qilishga yordam beradi. Boshqa tomondan, transport koridorlarini muvaffaqiyatli rivojlantirish va diversifikatsiya qilish koridor bo'ylab joylashgan mamlakatlarni bog'lovchi ishlab chiqarish – yetkazib berish zanjirida o'zbek tadbirkorlarining ulushini oshirishi mumkin. Bu mintaqaviy importda qo'shilgan qiymat mahsulotlari hajmini, shuningdek, o'zbek ishlab chiqaruvchilarining boshqa mamlakatlar eksportida aks etadigan ichki qo'shilgan qiymatdagi ulushini oshirish imkonini berar edi. Bunday holatda, O'zbekiston ushbu koridorlar bo'ylab joylashgan mamlakatlarni o'ziga jalb etuvchi markaz maqomiga ega bo'lishi mumkin. Koridorlarning rivojlanishi O'zbekiston yuklarini Latviya, Litva, Rossiya Federatsiyasi, Ukraina, Qozog'iston, Ozarbayjon, Gruziya, Pokiston, Turkiya, Eron va Xitoy dengiz portlaridan foydalangan holda tashish bilan bevosita bog'liqdir. Ushbu tadbirlar tashqi savdo tovarlarini, ayniqsa qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tashqi bozorlarga olib chiqish jarayonida "Yagona oyna", "Yashil Yo'lak", "Yagona bekat", "E-TIR", "E-Freight", "GLONASS", "GSM", "RFID" mexanizmlarini joriy etish bilan bir butunlikni tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasida mazkur yo'nalishda keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda, hususan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-iyuldagi "Bojxona ma'muriyatchiligini isloh etish va O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi PF-6005-son Farmon alohida o'rin tutadi. Ushbu farmonga muvofiq, bojxona ma'muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish hamda inson omilini qisqartirish orqali xizmatlar sifatini oshirish ustuvor vazifa etib belgilangan. Natijada bojxona jarayonlarini avtomatlashtirish, elektron



deklaratsiya tizimlarini rivojlantirish va yuklarni tezkor rasmiylashtirish imkoniyatlari kengaytirildi.[1]

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksiga muvofiq bojxona nazorati risklarni boshqarish tizimi asosida amalga oshiriladi. Mazkur tizim orqali tovarlar va transport vositalari xavf darajasiga qarab saralanib, differensial nazorat mexanizmi qo'llaniladi. Xususan, past xavf darajasiga ega bo'lgan yuklar "yashil yo'lak" orqali o'tkazilib, ular minimal darajada yoki umuman bojxona tekshiruvsiz rasmiylashtiriladi. Bu esa tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari uchun ortiqcha vaqt va xarajatlarni kamaytirib, yuklarning uzluksiz harakatini ta'minlashga xizmat qiladi.[2]

Tovarlar rasmiylashtiruvchi jarayonida bojxona organlarining "Xavflarni boshqarish" axborot tizimi quyidagi yo'laklar kesimida tovar, transport vositalari, shaxslarning xavf darajalari hamda ularga nisbatan qo'llaniladigan bojxona nazorati shakllari va hajmini belgilaydi.

Yashil yo'lakda - xavf darajasi past belgilanadi va bojxona nazorati shakllari qo'llanilmaydi (tovarlar chiqarib yuborilganidan keyingi bojxona nazorati bundan mustasno). Bunda "yashil" yo'lakka yo'naltirilgan tovarlar avtomatik tarzda rasmiylashtiriladi.

Sariq yo'lakda - xavf darajasi o'rta belgilanadi va bojxona nazoratining bir yoki bir nechta shakllari qo'llaniladi (bojxona va shaxsiy ko'rik bundan mustasno);

Qizil yo'lakda - xavf darajasi yuqori belgilanadi va bojxona nazoratining bir yoki bir nechta shakllari qo'llaniladi;

Ko'k yo'lakda - bojxona nazorati shakllari tovar va transport vositalari chiqarib yuborilgandan so'ng amalga oshiriladi. 2025-yil 1-oktabrdan tovarlarni olib kirish, olib chiqish va tranzit olib o'tish bo'yicha barcha sertifikat, xulosa va ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlar faqat "Yagona darcha" bojxona axborot tizimi orqali rasmiylashtiriladi.

Bugungi kunda xalqaro yuk tashishda qog'oz hujjatlardan voz kechish va jarayonlarni shaffoflashtirish hamda inson omillarini kamaytirish asosiy ustuvor vazifa bo'lib qolmoqda. Shu maqsadda, chegara va bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish uchun butun dunyoda bo'lgani kabi, yurtimizda ham E-TIR va E-CMR kabi innovatsion raqamli yechimlardan foydalanishga o'tilmoqda.


E-TIR (Elektron TIR kitobchasi) – xalqaro yuk tashuvlarida bojxona tartib-taomillarini raqamlashtiruvchi tizimdir. U qog'oz ko'rinishidagi kitobchalarni elektron shaklga o'tkazib, chegarada hujjatlarni tekshirish vaqtini qisqartiradi.

E-CMR (Elektron yuk xati) – xalqaro avtomobil tashuvlaridagi asosiy shartnoma hujjatining raqamli talqinidir. Bu tizim yuk jo'natuvchi, tashuvchi va qabul qiluvchi o'rtasida real vaqt rejimida shaffof ma'lumot almashishni ta'minlaydi.

Bu tizimlar orqaliy xalqaro yuk tashish jarayonlarini soddalashtirib, bojxona va transport operatsiyalarini tezlashtirmoqda. Bu tizimlar hujjat aylanishini elektron shaklga o'tkazib, yuklarning chegara punktlaridan o'tishini ancha qulay, tez va shaffof qiladi. Shu bilan birga, yashil yo'lak va transport koridorlarini rivojlantirish tashqi savdo oqimini oshirishga katta hissa qo'shmoqda. Natijada


import va eksport jarayonlari tezlashib, logistika xarajatlari kamaymoqda. Umuman olganda, raqamli yechimlar xalqaro savdoni yanada samarali va zamonaviy tizimga aylantirmoqda.

Bunga misol qilib milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilda O'zbekistonning tashqi savdo aylanmasida import hajmi 47,4 mlrd AQSH dollarini tashkil etdi. Import hajmi 2024-yilga nisbatan 18,5 % ga o'sgan. Mazkur davrda O'zbekiston 180 dan ortiq davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi.



1-rasm. 2025-yilda O'zbekiston importi qilgan davlatlar (AQSH dollarida).

Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilda O'zbekistonning tashqi savdo aylanmasida eksport hajmi 33,8 mlrd AQSH dollarini tashkil etdi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 24 % ga yuqori.



2-rasm. O'zbekiston eksportida yuqori ulushga ega bo'lgan davlatlar (AQSH dollarida).

Xulosa qilib aytganda, e-TIR va e-CMR kabi raqamli texnologiyalar hamda yashil yo'lak va transport koridorlari tizimlarining joriy etilishi xalqaro yuk tashish jarayonlarini tubdan takomillashtirmoqda. Ushbu tizimlar bojxona va logistika jarayonlarini soddalashtirib, hujjat aylanishini elektron shaklga o'tkazish orqali vaqt va xarajatlarni sezilarli darajada kamaytirmoqda, va chegarada turib qolish vaqtini kamaytirmoqda. Natijada yuklarning chegara punktlaridan o'tishi tezlashib, import va eksport hajmining barqaror o'sishiga sharoit yaratilmoqda. Shuningdek, raqamli nazorat va risk asosida ishlash tizimi xavfsizlik va shaffoflikni oshirmoqda. Umuman olganda, bu innovatsiyalar O'zbekistonning xalqaro transport tizimidagi raqobatbardoshligini kuchaytirib, uni muhim tranzit markazga aylantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-iyuldagi "Bojxona ma'muriyatchiligini isloh etish va O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi PF-6005-son Farmon; <https://lex.uz/docs/4875774;>
2. O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi 2016-yil 20-yanvar <https://lex.uz/docs/2876354;>
3. <https://gov.uz/oz/miit/pages/transport;>
4. [https://www.gazeta.uz/oz/2025/04/01/customs/;](https://www.gazeta.uz/oz/2025/04/01/customs/)
5. https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/66795-zbekiston-importidagi-top-10-davlatlar-3?utm_source=chatgpt.com;
6. <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/66743-zbekiston-2025-jilda-eng-k-p-ajsi-davlatlarga-ma-sulot-eksport-ilgan-2;>